TURK ELI

International Scientific Journal



Volume 1 | Special Issue Part 2 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

TURK ELI
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
Sarvar Ispahi

Editor-in-Chief
Jenishbek Duysheev

Deputy Editor in-Chief
Rahmonali Hasanov

Editorial Board:

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

About this Special Issue

This Special Issue presents selected papers from the International Scientific Conference
Ijtimoiy fanlar va jamiyat taraqqiyoti:
barqaror rivojlanishning strategik yo‘nalishlari

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science


TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
TITU
TOSHKENT – 2022
TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
IJTIMOIY FANLAR VA JAMIYAT TARAQQIYOTI:
BARQAROR RIVOJLANISHNING
STRATEGIK YO‘NALISHLARI
GLOBAL MIQYOS
STRATEGIYA VA TARAQQIYOT
ILM-FAN VA INNOVATSIYA
JAMIYAT VA INSON KAPITALI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
ILM-FAN ORQALI BARQAROR KELAJAK SARI
2026-yil 15-may

Contents

F. T. Baitova	Sociocultural Transformation of Kyrgyz Society: Historical Experience and Contemporary Trends	6
Sh. H. Sattarov	Service Sector Diversification in the Context of Uzbekistan's Digital Economic Transformation	11
R. Hasanov	Ahsikent: A Great Center of Civilization	16
S. Dj. Saidova	From Historical Heritage to Modernity: The Evolution of National Clothing	21
B. R. Karimov	The Contribution of the Timurid Renaissance to the Development of World Civilization	24
Y. Akhmedov	The Security Service in Amir Temur's State: The Foundation of Strategic Stability and Power	27
A. S. Kaliev *N. B. Bazarbaev*	Civic Identity in the Context of Globalization	31
F. Bozorova	The Socioeconomic Essence of Enhancing Public Welfare through Strengthening Household Activity in Uzbekistan	36
G. Y. Şirvanzadə	The History of Pedagogy and the Educational Ideas of Azerbaijani Intellectuals	39
Sh. Yuldoshev	Economic Implications of Government Price Regulation: Benefits, Drawbacks, and Policy Recommendations	41
M. E. Khujamov *S. M. Madumarov*	The Role of Amir Temur in the Education and Upbringing of Youth	44
O. O. Rahmatov	The Role of Social Conflicts in the Formation of Political Risks in Modern Society	46
I. X. Saidova	The Contribution of Women to Supporting Society in the Context of Global Conflict	49
I. B. Kamilova	Development of Communicative Competence in Fifth-Grade Students in Uzbek-Medium Education	52
Sh. U. Amirova	Cognitive and Linguocultural Aspects of Studying Mental Structures in Typologically Different Languages: A Case Study of Russian and Uzbek Proverbs	54
R. R. Rafikova	Methods of Integrated Lessons in Teaching Russian Grammar in Primary and Secondary Schools	59
M. Akhmedova	Methodology for Improving the Study of Ethnopedagogical Elements in the National Education System	61
A. S. Kaliev	Political Analysis of the Expansion Russian Empire on the Formation of the Civil Identity in Kyrgyz People	66
K. Yuldoshev	Sahibqiran Amir Temur in Karmana	72
V. A. Bekmurodova	Developing Oral Communication Skills among Uzbek School Students through the Comparative Study of Russian and Uzbek Speech Etiquette	74
F. B. Ismailova	The Role of Social Sciences in Societal Development: The Integration of Human Capital, Economic Reforms, and Digital Transformation	78
A. Kenjaeva	Effective Audio Formats for Developing Foreign Learners' Oral Communication Skills	81
Ch. Eshboboeva	Social Sciences and Societal Development: Strategic Directions for Sustainable Development	83
S. Burxonova	Methodological Approaches to the Study of Ethical Values in Pedagogy	86
S. Aliyev	The Role of Well-Being Psychology in Psychotherapy	88

The Role of Amir Temur in the Education and Upbringing of Youth

Khujamov M.E. (Acting Associate Professor)[1]

Madumarov S.M. (Student)[1]

[1.] Science and Technologies University
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
This article discusses Amir Temur, his domestic and foreign policy, his creative activity, which led to the establishment of a strong state in Transoxiana.
It also provides brief information on the history of Sahibkiran's activities and the importance of studying it in the educational system, and emphasizes the place of all this as an important factor in the education and upbringing of the younger generation.
Keywords: Amir Temur, youth, education and upbringing, domestic and foreign policy, factor, great figures, heritage, future, "Temur's regulations", lessons, future, virtues

Yoshlar ta'lim-tarbiyasida Amir Temur omili

Xujamov M.E (dotsent v.b.)[1]

Madumarov S.M. (talaba)[1]

[1.] Fan va Texnologiyalar universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya.
Mazkur maqolada Amir Temur haqida, uning Movarounnahrda mustahkam davlatni barpo etib, olib borgan ichki va tashqi siyosati, bunyodkorlik faoliyati yoritilgan.
Shuningdek, unda Sohibqiron faoliyati tarixi va uni ta'lim tizimida o'rganishning muhim ahamiyatiga oid qisqacha ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bularning barchasi yosh avlod ta'lim-tarbiyasida muhim omil ekaniga ahamiyat qaratilgan.
Kalit so'zlar: Amir Temur, yoshlar, ta'lim-tarbiya, ichki va tashqi siyosat, omil, buyuk siymolar, meros, kelajak, "Temur tuzuklari", o'gitlar, kelajak, fazilatlar

Tarixdan ma'lumki, har qanday davlat yoki jamiyat rivoji, taraqqiyoti bu yerda ta'lim va tarbiyaning qanday yo'lga qo'yilganligi bilan ham chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonda ham bu masalaga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada "Ta'lim va tarbiya, ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizni chuqur bilimga ega bo'lishi, chet tillarni va zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalarini puxta egallashni ta'minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi"[1] - deya ta'kidlagan edi O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. Ajdodlar merosini o'rganish, ayniqsa, Amir Temur tarixini tadqiq etish ham shu jihatdan muhim hisoblanadi. Shunga ko'ra qayd etilganidek: "XIV–XV asrlarda paydo bo'lib, tarix zarvaravqlarida "Temuriylar Renessansi" degan sharafli nom bilan muhrlangan galdagi taraqqiyot to'lqini bugun dunyoda ilm-fan, madaniyat, san'at, iqtisodiyot va davlatchilik asoslarini rivojlantirishga juda katta hissa qo'shdi"[2, 60-bet].

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek:

"... bizning tariximizda Amir Temurdek ulug' siymo bor ekan, uning qoldirgan merosi, pandu o'gitlari bugungi hayotimizga hamohang ekan, oldimzda turgan bugungi muammolarni echishda bizga qo'l kelayotgan ekan, bizning bu merosni o'rganmasdan, ta'riflamasdan, targ'ibot qilmasdan haqqimiz yo'q"[3, 60-bet]. Shuningdek, "Amir Temur – xalqimiz dahosining timsoli, ma'naviy qudratimiz ramzidir" - deya qayd etgan edi [4, 25-bet].

O'zbekistonda mustaqillik yilaridan boshlab Amir Temur va uning tarixini har tomonlama kengroq o'rganishga kirishildi, bu borada davlatimiz va xalqaro miqyosda muhim chora-tadbirlar belgilanib, aholi, ayniqsa, ta'lim muassasalari, yoshlarimiz o'rtasida tegishli targ'ibot hamda tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Dastlab, Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 29 dekabrda "Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori, 1995 yil 26 dekabrda esa 1996 yilni "Amir Temur yili deb e'lon qilish to'g'risida" Prezident farmoni qabul qilingan edi. 1996 yil mart oyida "Temuriylar tarixi" davlat muzeyini tashkil qilish haqida, "Amir Temur" ordenini ta'sis etish to'g'risida farmonlar chiqdi. Shu tariqa YUNESKO qarori asosida Amir Temur tavalludining 660 yilligi butun dunyoda keng nishonlandi. 1996 yil aprelda shu tashkilotning Parijdagi bosh qarorgohida "Temuriylar davrida fan, madaniyat va ta'lim ravnaqi" mavzuida ilmiy anjuman o'tkazilib, unda buyuk davlat arbobining tarixda tutgan o'rniga yuqori darajada baho berildi. Yurtimizda Sohibqironning hayoti va faoliyatiga doir shu singari e'lon qilingan farmonlar, chiqazilan qarorlar, o'tkazilgan bir qator anjuman va tadbirlar bu boradagi ishlarning yanada kengroq yo'lga qo'yilishiga zamin yaratdi.

Ayniqsa, 2026 yil 6 fevrl kuni "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Prezident qarori bu boradagi ishlar ko'lamini yanada yuqori darajada bo'lishiga keng yo'l ochdi [5].

Amir Temurning hayoti va faoliyatiga doir muhim ma'lumotlar tarixchi Nizomidin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiylarning "Zafarnoma"lari, Ibn Arabshohnig "Amir Temur tarixi", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla' us-sa'dayn", Mirxondning "Ravzat us-safo", Xondamirning "Xulosat ul-axbor" kabi asarlarida uchraydi.

Yana, XV asrda yashagan arab tarixchilari Ibn Xaldun, Ibn Duqmoq, As-Suyutiy, Al-Qalqashandiy, As-Saxoviy, Badriddin Al-Ayniy, Al-Maqriziy va boshqalarning tarixiy asarlarida ham Sohibqironnig hayoti, harbiy yurishlari to‘g‘risida ko‘pgina ma'lumotlar saqlangan bo‘lib, ular deyarli o‘rganilmagan[6, 169-bet].

Temurbek (to‘liq ismi Amir Temur ibn Tarag‘ay ibn Amir Barqul) 1336 yil 9 aprelda Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ildi. Yoshlik chog‘idanoq maxsus murabbiylar nazoratida chavondozlik, ovchilik, kamondan nishonga o‘q uzish, harbiy mashq va o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lgan [7, 274-bet].

Manbalarga asoslangan talqinlarda Amir Temurning ilk o‘qituvchisi Mulla Alibek bo‘lganligi, keyin esa unga Shayx Shamsuddin ismli olim ustozlik qilganligi qayd etilgan[8, 16-bet].

Yoshlikdanoq Temurbekning xotirasi kuchli bo‘lib, "fors, arab, turk tillarini o‘zlashtirgan"i, "Qur'oni Karimni yod olgan"ligi ham uning aql-zakovati yuqori bo‘lganligidan dalolat berar edi.

Bolalikdan zehni o‘tkir, hayotga ishtiyoq bilan boquvchi Temurbekning unga yaratilgan shart-sharoitlar tufayli, muntazam ravishda olib borgan turli harbiy va sport mashg‘ulotlari, ta'lim-tarbiyasi ko‘nglida yuksak orzu-umid, maqsadlarining paydo bo‘lishiga zamin yaratdi va xush taqdir uning peshonasiga niyatiga yarasha ulkan ishlarni, ya'ni, mug‘ullarning o‘lkadagi hukmronlik mavqeyiga butunlay barham berish, markazlashgan, mustaqil davlatni barpo etish barobarida buyuk saltanatni yaratish vazifasini belgilab berdi.

Fazilatlari ichida to‘g‘riso‘zlik va qat'iylik, shijoat va ishonch, tadbirkorlik va oqibatlilik, uzoqni ko‘ra olish kabi sifatlar tobora ko‘plab sadoqatli do‘stlar, safdoshlarni orttirishiga, o‘z oldiga qo‘ygan ulug‘ maqsadlarni amalga oshirishida muhim omil bo'ldi.

Temurbekning Movarounnahr taxtiga kelishidan avvalroq, ya'ni, 30 yoshlarda ekanligidayoq (1366 yil) Qarshi qal'asini olish uchun 243 nafar qurollangan botir yigitlari bilan 12000 nafar Amir Muso boshliq qo‘shinga qarshi o‘ta puxta o‘ylab amalga oshirgan harbiy taktikasi uni raqib ustidan tengsiz g‘alaba qozonishga muyassar etganligi tarixiy manbada qayd etib o‘tilgan[9, 48-bet].

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida yozilishicha, Boburmirzo ham bobokalonining shu jasoratidan ibrat olib, 1500 yil 240 nafar dovyurak yigitlari bilan tunda Samarqand qal'asiga hujum qilib, Shayboniyxonning qo‘shinlarini poytaxtdan quvib yuborgan edi [10, 4-bet].

Temurbek 1370 yil hokimiyat tepasiga kelgach, atrof-viloyatlarni yagona markazga birlashtirishga kirishdi va qo‘shni davlatlar tomonidan bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni bartaraf etish zarur ekanligini anglagan holda ichki va tashqi siyosat olib bordi.

Amir Temurning 1391, 1395 yillarda To‘xtamishxonga qarshi, 1402 yil Turkiya sultoni Boyazid Yeldirimga qarshi g‘alaba bilan yakun topgan harbiy yurishlari ko‘pgina Evropa davlatlari, shuningdek, Rossiya taqdirida muhim rol o‘ynadi[11, 87-bet].

Sohibqironning dunyo bo‘yicha yashab o‘tgan ko‘pgina mashhur hukmdorlardan farqli jihatlaridan biri, nafaqat Movarounnahrda, balki tuzgan buyuk saltanat tasarrufiga kirgan keng hududlarda ham tartib-intizom o‘rnatib, obodonchilik, bunyodkorlik ishlariga juda katta ahamiyat qaratganligi bilan e'tiborlidir. Masalan, 1381 yili Xurosondagi Murg‘ob daryosidan sug‘orish kanali qazdirdi va Marv vohasini obodonlashtirish to‘g‘risida farmon e'lon qilgan edi. 1401 yilda esa Kavkazning Baylakon degan joyida Araks daryosidan chiquvuchi mashhur Barlos nomli kanalni qurdirgan. Shuningdek, Mashhad, Qobul, Hirot va boshqa vohalarda ham shu singari yirik ishlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, markazi Samarqand bo‘lgan Vatani - Movarounnahrni har tomonlama yuksaltitish uchun o‘zining bor imkoniyatlarini ayamadi. Me'morchilik, san'at sohalarida, davlatchilik va harbiy sohalarda amalga oshirgan beqiyos ishlari uning nomini abadiyatga daxldor etib qo‘ydi. Masalan, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Samarqanddagi Go‘ri Amir maqbarasi, Bibixonim Jom'e masjidi, Shohizinda majmuasi kabi me'moriy yodgorliklar insoniyat tafakkuri va san'ati, tajribasining noyob durdonalari sifatida YUNESKO ro‘yxatiga olingan.

Zahiriddin Muhammad Bobur mahobatli Oqsaroyga shunday ta'rif bergandi: "Muncha oliy toq jahonda kam nishon berur. Derlarkim, Kasro toqidin bu buyukroqdir" [12, 148-bet]. Sohibqiron hukmronligi davrida Samarqand "Yer yuzining sayqali"ga aylandi. Obodonchilik, bunyodkorlik ishlari saltanatning boshqa hududlarida ham davom ettirildi.

Mavzuga qisqacha xulosa qilganimizda, Amir Temur, uning hayoti va davlatchiligi tarixini, bunyodkorlik faoliyati bilan bog‘liq tafsilotlarni shu tariqa ta'lim tizimida tobora kengroq tarzda o‘rganib borish zarur ekanligini anglab yetamiz. Chunki, bularning barchasi yosh avlod ta'lim-tarbiyasida, ularni vatanparvar, xalqqa muhabbat va sadoqat, yurtimizning buyuk kelajagiga ishonch va uning oldidagi o‘z mas'ulligini anglash ruhida tarbiyalashda hamda komil inson bo‘lib ulg‘ayishlarida muhim omil bo‘lib xizmat qilishiga ishonamiz.

References

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi nutq. "Xalq so‘zi", 2016 y. 9-sentyabr
2. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston, T., "O‘zbekiston", 2024 y. 60-b.
3. Karimov I.A., Amir Temur haqida so‘z, T., "O‘zbekiston", 1996 y. 60-b.
4. Karimov I.A., Amir Temur haqida so‘z, T., "O‘zbekiston", 1996 y. 25-b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 05.02.2026 yildagi PQ-46-son (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.02.2026 y. /26/46/0114-son)
6. Ahmedov B., Amir Temurni yod etib, T., "Fan", 1996 y. 169-b.
7. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 1-qism, T., "O‘zbekiston ME",T., 2000 y. 274-b.
8. Juzjoniy A.Sh. Amir Temur davlatida qonun ustuvorligi. Amir Temur saboqlari, №3, T., "Sharq", 2001 y. 16-b.
9. Yazdiy Sh. "Zafarnoma", T., 1997 y. 48-b.
10. Qodirov P., Amir Temur siymosi, T., "O‘zbekiston", 2007 y. 4-b.
11. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib, T., "Fan", 1996 y. 87-b.
12. Amir Temur jahon tarixida, T., "Sharq", 2001 yil, 148-b.